

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Vodorod generatorlarining energiya samaradorligini oshirish maqsadida elektrodni molibden va volfram qoplamali yangi funksional gradient material asosida yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - elektrodni arzonlashtirish maqsadida temir yoki alyuminiy elektrodni yupqa qatlam molebden yoki volfram bilan qoplash; - yaratilgan elektrodni ish jarayonida sinash; - yangi elektrodni asosida ishlaydigan elektrolizer qurilmasining yangi konstruksiyasini loyihalash; - yangi konstruksiyaning matematik modelini ishlab chiqish; - elektrolizer qurilmasi konstruksiyalarini yaratish va sinab ko'rish. - yaratilgan qurilmaning kapital ta'mirigacha ishlash davri 10 yildan kam bo'lmasligi; - ishlab chiqariladigan vodorod moddasining tozalik darajasi 99,95% dan kam bo'lmasligi; - 1 Nm³ vodorod ishlab chiqarish uchun energiya sarfi 5 kVt soat dan oshmasligi; - ishlab chiqarilayotgan vodorod va kislorod moddalarning elektrolizerdan chiqish bosimi 5 bardan kam bo'lmasligi talab etiladi; - barcha parametrlar sertifikatlangan o'lchov asboblari yordamida ko'rsatib beriladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Energetika vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Energetika vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.